



VAQTNI QO'RQITA OLADIGAN INSHOOTLAR

Abdujalilova Odina Norqul qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadimgi Misrning hayratomuz tarixidan guvohlik beruvchi piramidalar, ularning qurilish tarixi, xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, Misr ehromlari, uning tuzilishi, fir'avnlar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi, Misr piramidalari, Joser, Imxotep, Sakkara, Xufu, Menkavra, Sfinks, Napaleon Banopart, Tutamxamon .

Tarixdan ma'lumki, inson hayoti mo'jizalarga boy. Insonlarning nafas olishi, hayot kechirishining o'zi bir mo'jiza. Lekin, dunyoda shunday mo'jizalar borki, ular insonlar qo'li bilan yaratila turib, ming yillardan beri insonlarni hayratga solishni davom etmoqda. Bularga misol qilib Olimp xudosi Zevs haykali, Aleksandr mayog'i, quyosh xudosini Gelios haykali, mabuda Artemida ibodatxonasi, Semiramida osma bog'lari, Galikarnas maqbarasi va ming yillar davomida yashab kelayotgan, vaqtdan qo'rqmaydigan Misr piramidalarini ham aytish mumkin.

Piramidalar jahon me'morchiligining eng yorqin namunasidir. Ushbu piramidalar uch, to'rt va ko'p burchakli geometrik shaklda bo'lib, yuqoridan pastga qarab kengayib boradi. Misrda piramidalar Qadimgi Podsholik davrida hukmdorlar va a'yonlar o'zlari uchun toshdan ulkan sag'ana-ehromlar qurdirganliklarining bir belgisi hisoblanadi[Kabirov A., 46-b.].

Odatda piramidalarga fir'avnlar, uning oila-a'zolari va davlat a'yonlari dafn etilgan. Har bir davr uchun piramidalar insonlarni mahobati va kattaligi bilan insonlarni lol qoldirgan hamda bu inshootlar fir'avn va amaldorlarning kuch-qudrati ramzi ham bo'lgan. Misr aholining e'tiqodi bo'yicha, piramidalarga fir'avnlarni



mumiyolab, oyoq yetmas, ko'z ko'rmas, "abadiy yotog'ida" saqlanishini ta'minlab, ularning ruhini mangu yashashiga qat'iy ishonishgan [Kurshkol Y., 152-153 b.].

Tadqiqotlardan aniqlanishicha, piramida va sag'analari qurish uchun I va II sulola fir'avnlari qurdirgan mastobalar namuna bo'lgan. III sulola vakili bo'lgan Joserga balandligi 60 metr bo'lgan piramida mastoba o'rnida quriladi. Bu kichrayib borayotgan olti ustma- ust qo'yilgan mastoba bo'lgan.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, Joser ko'p harbiy yurishlar olib boradi va xazina to'playdi. Shunda uning yordamchisi Imxotep ismli shaxs toshlarni bir birining ustiga taxlab zinapoyasimon inshoot vujudga keladi va uning taklifi bilan Joser tomonidan ushbu inshoot qurilishiga buyruq beriladi. Bu inshoot 20 yil davomida quriladi. U qurib, bitkazilgandan keyin Misrdagi eng baland inshoot bo'ladi. Va bu inshoot Joserga juda yoqadi va yordamchisi Imxotepdan juda mamnun bo'lgan. Hatto, an'analarga qarshi chiqib ushbu inshootga o'z ismi bilan birgalikda yordamchisining ham ismini yozgan ekan. Ushbu inshoot o'ziga xos bo'lib uning 13 ta eshigi bo'lgan faqat bittasi haqiqiy, qolganlari esa, soxta eshiklar bo'lib, haqiqiy eshik janubda joylashgan bo'ladi [Rajabov R. 62-b.]. Shunday ekan, bu soxta eshiklar ehromlar ichidagi ma'lum bir xazinani dushmanlardan asrash uchun qo'llangan.

Shu o'rinda, Joser piramidasi, uning tuzilishi va qurilishiga bir nazar soladigan bo'lsak, bu piramida Sakkarada joylashgan. Memfis shahri yaqinida mil.avv. 2600-yilda to'rtinchi sulola fir'avni Xufu qurdirgan maqbara o'zining ulkanligi va hashamati bilan kishini lol qoldiradi. Ehromning tomonlari 250 metr bo'lib, uning atrofini aylanib chiqish uchun sayyoh bir kilometr yo'l bosishi kerak. O'z davrida uning balandligi 150 metrdan ziyod bo'lib, hozirgi holati 146 metrdir. Manbalar ma'lumotiga qaraganda piramidani qurish uchun ikki million uch yuz ming dona taroshlangan tosh ishlatilgan. Ehromlarning xomashyosi bo'lgan toshlar Nil daryosining o'ng sohili bo'ylab cho'zilgan arab qirlaridagi tosh konlaridan qazib olingan hamda silliqalanib, sollarga ortilgan holda suv yo'li bilan olib kelingan. Ushbu toshlar pastda taroshlanib, silliqlangan.



Maqbara qurilishiga taroshlab tayyorlangan toshlarning eng kichigi ikki yarim tonna, kattasi esa o'n besh tonnadan iborat bo'lgan. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, bu ehrom maqbara 25-30 yil mobaynida qurilgan ekan. Uning qurilishida 100 mingdan ortiq kishi doimiy ravishda ishlagan. Maqbara toshlari silliqalanib bir-biriga shunday zich qilib terilganki, toshlar oralig'iga Misrga tashrif buyurgan fransuz imperatori Napoleon Bonapart qilichining tig'i ham sig'magan ekan[Avdiev., 228-b.].

Piramidalar Qadimgi Misr me'morchiligining eng noyob yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Olimlar Xufu maqbarasini dunyodagi yetti mo'jizaning biri hisoblaydilar. Ehromlarni qurishda silliqlangan katta-kichik bahaybat tosh plitalarini yuqoriga sudrash usuli bilan olib chiqilgan bo'lsa kerak. Shubhasiz, bu ishda me'morlar qo'l kuchi va ishchi hayvonlar – hokizlardan foydalangan bo'lsalar ajab emas.

Ehromlarga ishlatilgan ulkan toshlarni yuqoriga chiqarish masalasi olimlar orasida turli bahslar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Fikrimizcha, toshlarni yuqoriga olib chiqish uchun pastdan yuqoriga yo'g'on-yo'g'on to'sinlardan foydalanilgan. To'sinlarni yo'nib, silliqlab, unga yog', moy surilgan hamda toshlar sirg'antirish usuli bilan yuqoriga chiqarilib joylashtirilgan bolishi mumkin.

Yana bir piramida haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Xafra piramidasi Gizada joylashgan bo'lib, u Xufu piramidasidan 8 metr kichik. Lekin Xafra piramidasi yaxshiroq saqlangan. Bu esa o'sha davrda toshtaroshlik yaxshiroq rivojlanganini bildiradi. Uchinchi piramida Menkavra tomonidan qurilgan bo'lib, bu piramida boshqalariga nisbatan xiyla kichik va balandligi atiga 66 metr. Menkavra hukmronlik qilgan davr IV-sulola davriga to'g'ri kelib, bu davrda fir'avnlarning moddiy resurslari va hokimiyat kuchi tushkunlikka uchragan bo'lsa kerak. Ushbu uch piramida hukmdorning yaqin qarindoshlari, urug' aymoqlari, davlat a'yonlari tomonidan qurilgan maqbaralar bilan o'rab olingan[Avdiev., 228-229-b.]. Bu juda katta "O'liklar shahri" hozirgi vaqtda sinchiklab kovlangan bo'lib, undan topilgan narsalar bu davrdagi moddiy madaniyati, san'ati va tarixining yorqin manzarasini ochib berdi.

Yana bir barcha uchun qiziqarli ma'lumotga e'tibor qaratsak, Qadimgi Misrda piramidalarga yilda ikki marta quyosh nuri tushish hodisasi Abu Simbel



ibodatxonasida kuzatilgan. Ushbu mo'jizaviy hodisa faqatgina 22-fevral va 22-oktabrda kuzatilgan. Shu kunlarda quyosh nurini to'g'ridan-to'g'ri Ramzes II haykaliga tushadi. Bu sanalarda quyosh nuri tushish hodisasi bekorga bo'lmasdan 22-fevralda Ramzes II taxtga o'tirgan bo'lsa, 22 oktyabrda esa Ramzes II tug'ilgan[Rajabov R. 65-b.]. Bu hodisa qadimgi Misrliklar yulduzlar va quyosh holatini mukammal hisob kitob qilganini ko'rsatadi.

Misr ehromlari bilan bog'liq bo'lgan me'moriy qurilma bu sfinksdir. "Sfinks"ni eshitganimizda Misrdagi Giza shahri yaqinidagi piramidalar yonida joylashgan Buyuk Sfinksni tasavvur qilamiz. Aslida, sfinks qadimgi afsonalardagi maxluqdir. Yunonlar uni ayol kishi boshi, sherning tanasi va qanotlar bilan tasvirlagan. Misrliklar uni erkak kishining boshi va ko'kragiga ega qanotsiz sher sifatida tasavvur qilgan. Misr Sfinksi dastlab Buyuk Piramida qurilishidan qolgan ulkan tosh bo'lgan. Keyinchalik bu toshdan odam boshiga ega, balandligi 20 m, uzunligi esa 73 m bo'lgan ulkan sher tarashlangan[Kabirov A., 49-50-b.]. Chamasi, sfinksda Misrning to'rtinchi sulolasiga mansub fir'avn Xafrenning yuzi aks ettirilishi kerak bo'lgan.

Qadimda sherlar Nil vodiysi ortidagi cho'lda yashagan. Ular kuchli va chiroyli bo'lgani sababli misrlik haykaltaroshlar toshlardan ularning haykallarini tarashlab yasab, ibodatxonalarni qo'riqlashi uchun kirish joylariga qo'ygan. Keyinchalik, sherning boshi o'rniga fir'avn boshini yasay boshlashgan. Qadimgi Misrda fir'avnlr Ra ismli Quyosh xudosining elchisi va vafot etganida, uning o'zi Quyosh xudosiga aylandi, deb hisoblangan. Shuning uchun Buyuk Sfinks fir'avnni piramidalarni qo'riqlayotgan Quyosh xudosi sifatida tasvirlaydi.

Buyuk Sfinksdan kattaroq sfinks bo'lmasa-da, ko'plab fir'avnlr o'z tasvirlarini sfinks shaklida qoldirgan. Bir holatda sfinks taxtni egallab olib, mamlakatni boshqargan ayol - malika Xatshepsutning yuzi bilan yasalgan. Bu sfinks malika Xatshepsutning kuchini aks ettirish uchun yuzi soqolli etib tarashlangan[www.wikipedia.org. internet sayti].

Piramidalarining ichki qismi ham o'ziga xos tuzilgan bo'lib, u bir nechta xonalardan iborat bo'lgan. Ularda Fir'avn dafn etilgan xona alohida,



kohinlar uchun ajratilgan ibodat qiladigan xona alohida shakllantirilgan. Fir'avn qizlari uchun ajratilgan butxona ham alohida bo'lgan. Shuningdek, Piramidalar ichiga Fir'avnlr boyliklari bilan dafn etiladi. Bu boyliklar keyinchalik talon-taroj qilingan. Oradan vaqt o'tib Yangi podisholik davridan piramidalar ham qurilmay qo'yiladi. Fir'avn Tutanxamon baland tog' qoyasi o'yilib ichiga dafn qilingan. Shu tariqa tog'larda maqabaralar qurilishi yo'lga qo'yiladi. Bunday maqbalarni qurilishi piramidalarga nisbatan ancha oson va ko'p mablag' talab etmas edi. Yangi podsholikning fir'avini Tutanxamonning kichik siyosiy tarixiga qaralsa, u 10 yoshida taxtga o'tirib 19 yoshida vafot etib, piramida qurishga ulgurmagan [www.wikipedia.org. internet sayti].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinmi, ushbu piramidalar to'rt ming yil oldin qancha insonlar mehnati natijasida qurilib, hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu inshootlar hozirda Misr davlatining tashlif qog'oziga aylangan. Olimlar tomonidan hozirgi kunda Giza shahri atrofida 119 piramida borligi aniqlangan. Bu piramidalarni ko'rish uchun juda ko'p turistlar tashrif buyuradi. Texnika taraqqiy etmagan bu davrda shunday inshootlarning qurilishi shubhasiz mo'jiza edi. Shuning uchun ham ushbu me'morchilik namunalari dunyoning yetti mo'jizasidan biriga aylandi. Bu dunyo mo'jizalariga aylangan piramidalar qurilgandan buyon to hozirgacha bo'lgan davrda insonlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Misrga tashrif buyurib, ushbu mahobatli piramidalarni ko'rgan har bir kishi, unga doim hayrat bilan boqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avdiyev R. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 1964.
2. Krushkol Y. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 1974.
3. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 2016.
4. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 2009.
5. www.wikipedia.org. internet sayti.